

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY ISLOHOTLAR STRATEGIYASI**СТРАТЕГИЯ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ, РЕАЛИЗУЕМЫХ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ****STRATEGY OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORM IMPLEMENTED IN THE BODIES OF THE INTERNAL AFFAIRS****Inomov Avazbek Soyibjonovich¹****¹Inomov Avazbek Soyibjonovich**

– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalari davlat siyosatida bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Аннотация

В статье научно анализируются представления о стратегии духовно-просветительских реформ, реализуемых в органах внутренних дел. Также в статье научно обосновано, что обеспечение мирной и мирной жизни населения в нашей стране, борьба с преступностью и правонарушениями, поддержание общественного порядка и безопасности являются актуальными задачами государственной политики на сегодняшний день.

Abstract

The article scientifically analyzes ideas about the strategy of spiritual and educational reforms implemented in the internal affairs bodies. The article also scientifically substantiates that ensuring a peaceful and peaceful life of the population in our country, the fight against crime and offenses, maintaining public order and security are urgent tasks of state policy today.

Kalit so'zlar: mafkura, ma'naviyat, ma'rifat ichki ishlar organlari, tinchlik, osoyishtalik, hayot, jinoyatchilik, huquqbuzarlik

Ключевые слова. Идеология, духовность, просвещение, органы внутренних дел, мир, спокойствие, жизнь, преступление, правонарушение.

Key words. Ideology, spirituality, education, internal affairs bodies, peace, tranquility, life, crime, offense

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida eng muhim va ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur masala bugungi kunda yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga hamda mamlakatimizni modernizatsiya qilishga zamin yaratmoqda. Shu sababli davlatimiz rahbari tomonidan ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini zamonaviy bosqichga ko'tarishdek g'oyat muhim vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilayotgan bejiz emas, albatta. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "xalqimiz Yaratgandan, avvalo, tinchlik-xotirjamlikni so'raydi. Shundan so'ng, o'z uyim, boshpanam bo'lsa, oilam, bola-chaqam bilan sog'-salomat yashasam, deydi. Biz xalqimizning ana shunday orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya'ni ichki ishlar va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga katta e'tibor qaratayapmiz"[1], - deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ichki ishlar tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Bugungi kunda el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ma'naviy-mafkuraviy ishlar mamlakatimizda doimo ustuvor vazifalardan biri hisoblangan.

Jamiyatimizda mafkurani harakatlantiruvchi asosiy kuch ma'naviyat bo'lib, uni yuksaltirishga xizmat qilish bugun barchaning burchi ekanligini teran anglash lozim. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ma'naviyat yo'nalishidagi dolzarb vazifalarini belgilab berilgan edi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Mazkur yig'ilishda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mafkurasining asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tdi: "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasini ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan" [2.], – deya ta'kidlab o'tgan edi. Zero, bugungi kunda dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surib, manfaatlar to'qnashuvi tobora kuchayib bormoqda.

Prezidentimiz o'z nutqida ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini hozirgi zamonda boshqa xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma'naviy jihatdan g'afolatga botib, "uxlab yotish"ga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligini barcha fojia va muammolar Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan, ekanini ma'naviy-ma'rifiy sohada oldimizda turgan eng muhim vazifa jahonda kechayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni chuqur tahlil qilib, ulardan xulosa chiqargan holda, yo'limizni to'g'ri tanlashimiz zarurligini aytib o'tgani bejiz emas.

Yurtboshimiz mazkur videoselektor yig'ilishida ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratar ekan: "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [2.]. Zero, dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan tahlikali jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar tizimini tubdan isloh etish, tizimda ma'naviy-ma'rifiy sohani yangi bosqichga olib chiqish asosiy vazifa etib belgilandi. Ushbu vazifani amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy sohada dunyoqarashini yuksaltirishga dolzarb vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Harakatlar strategiyasida «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak», degan tamoyil davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qabul qilingan PF-5005-sonli farmoni ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishning doktrinal va konseptual asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan mazkur farmon ichki ishlar organlari tizimida tubdagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida yordam ko'rsatadigan, uning har bir xodimi «Xalq manfaatlariga xizmat qilish»ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonida [3.] ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, tinchlik-osoysishtalikni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratilgan.

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" [3.] asosiy vazifa etib belgilangan. Xususan, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha amaliy natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ishlar xodimlarning zamonaviy qiyofasini yaratishga qaratilgan dasturiy hujjat Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining II yo'nalishi "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" 17-maqsadi: "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmat, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish", deb nomlanib, unda "Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish"[3.] vazifasi belgilangan. Zero, mazkur holatda bu xodimlarning o'z vakolatlarini bajarish jarayonida faqatgina professionalizmning o'zi yetarli emasligini, balki ma'naviy va ma'rifiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Shu o'rinda, ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviyati haqida fikr yuritganda eng avvalo, har bir xodim o'zini xalq vakili sifatida ona Vatani cheksiz sevadigan o'z yurtiga fidoiy, fuqarolarning huquq va erkinliklarini vijdonan, imon-e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik bilan himoya qilishga qodir bo'lgan jasoratli botir insonlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashini o'zgartirish belgilangan. Ayniqsa, bu borada yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur sohada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan[4.].

Shuningdek, qarorda mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash;

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish[4.]kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda ichki ishlar sohasidagi dolzarb vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning kasbiy bilim saviyasini oshirish talab etadi. Binobarin, «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!» degan ezgu g'oyani qalbi va ongiga singdirgan xodimgina o'z vazifasini vijdonan va sidqidildan bajaradi. Eng avvalo, buning uchun esa ichki ishlar

tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni mutlaqo yangi shaklda yo'lga qo'yish va amalga oshirish talab etiladi.

Birinchiidan, ma'naviy yuksak kadrlarni shakllantirish. Yuksak ma'naviyatli inson fidoyilik, jasorat, mardlik, bag'rikenglik, Vatanni sevish, milliy qadriyatlarimizni qadrlash, buyuk ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlar bilan ajralib turadi.

Ikkinchiidan, vatanparvar, yurtga sodiq kadrlarni tayyorlash. Haqiqiy vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli yo'lida mehnat qilish va kurashish demakdir. Vatanparvar o'z xalqining yaxshi va yomon kunlarida u bilan birga bo'ladi, o'z baxtini Vatan baxtidan izlaydi.

Uchinchiidan, bilimli va salohiyatli kadrlar tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish g'oyat zarurdir. Zero, ichki ishlar organlari xodimlarini yuksak kasb madaniyati sohibi etib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda kitobning ahamiyati katta.

To'rtinchiidan, kadrlar bilan ishlashda tarbiyaviy ishlarni jadallashtirish. Shu bois ichki ishlar organlarida shaxsiy tarkibni tarbiyalash, ushbu tizimni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mavjud tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, tubdan yaxshilash uchun tegishli ishlar amalga oshirilyapti. Ayniqsa, yosh xodimlarni ona-Vatanga muhabbat, kasb-ga sadoqat ruhida tarbiyalash, xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash borasida bir qator ijobiy ishlar qilinmoqda.

Beshinchiidan, xodimni ijtimoiy himoya qilish choralarni kuchaytirish. Shu maqsadda ichki ishlar organlari tizimida uzoq yillar davomida xizmat qilib kelayotgan xodimlar va ularning oila a'zolarini uy-joy bilan ta'minlash, subsidiya ajratish, ijara to'lovlarini qoplash masalalari hal etilyapti. IIV va joylarda turar joyga ehtiyojmand xodimlar ro'yxati yuritilib, ularga xizmat turar joylari ajratilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, xodimlarning quvonchu tashvishiga sherik bo'lish doimiy yumushga, ma'naviy ehtiyojga aylangan[5.]. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tizimda ma'naviy-ma'rifiy muhitni tubdan isloh etish va uni yangi bosqichga olib chiqish borasida ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-sonli qarorida ichki ishlar xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta'minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas'uliyat hissini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifasi sifatida belgilangan. Ushbu qarorga ko'ra, Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi» tasdiqlandi[6.].

Ushbu konsepsiyada ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma'naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini yanada mustahkamlash kabi ulug' maqsadlar o'z aksini topgan.

Mazkur konsepsiya ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, sohadagi ishlarning ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiyada ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish bilan bog'liq vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, konsepsiya milliy va xalqaro huquq normalari asosida ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma'naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg'ularini mustahkamlash bilan bog'liq faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

XULOSA

Konsepsiyaning asosiy mazmuni sifatida xodimlarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini mustahkamlash, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo'naltirish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni ifodalaydi. Konsepsiyaga ko'ra, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!» konseptual g'oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati fuqarolarning tinchligi va mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o'z jonini ayamaydigan, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat va halollik fazilatlariga ega xodimlarni shakllantirishdan iborat ekanligi belgilangan. Shu bilan birga, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarning muvaffaqiyati kadrlarning malakasi, ularning tashkilotchilik qobiliyati, yangi davr talablaridan kelib chiqqan holda ichki ishlar tizimida jonkuyarligi, halol va pokligi, vatanparvarligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tashkil etishda xodimlarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va g'oyaviy kurashlar keskinlashayotgan bir sharoitda, mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'yimaslik va mafkuraviy immunitetni tizimli ravishda takomillashtirib borish, eng avvalo, ichki ishlar xodimlarida yuksak vatanparvarlik tuyg'usini, millatning urf-odat va an'analarini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev turli unvonlar, orden va medallarni o'z egalariga topshirdi // Xalq so'zi. – 2017yil 7 dekabr.
2. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. https://uz.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va-ruhi-manaviyatdir_235451
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qapopi. <https://lex.uz/docs/5344692>
5. Islohotlar ichki ishlar organlari faoliyatini yangilashga zamin yaratadi. <https://iiv.uz/oz/news/islohotlar-ichki-ishlar-organlari-faoliyatini-yangilashga-zamin-yaratadi>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-son Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/5353841>